

# Birinchi o'zbek arxeolog – tadqiqotchisi, akademik Yahyo G'ulomov

1-may – Birinchi o'zbek arxeolog – tadqiqotchisi, akademik Yahyo G'ulomov tavallud topgan kun. (1908-yil, 113 yoshda).

Yahyo G'ulomov 1908-yil 1-may kuni Toshkent shahrida joylashgan Shayxontohur dahasining Oqmachit mahallasida mudarris oilasida tug'ilgan. Otasi G'ulomxon qadim Shoshdagi mashhur Xo'ja Ahror madrasasida mudarrislik qilgan, onasi Soraxon esa mahalladagi mактабда qizlarga harf o'rgatib, saboq berardi. Aynan ushbu oilaviy muhit olimning kelajakda dunyo ilmiga hissa qо'shishida zamin yaratdi.

Samarqandda joylashgan O'zbekiston pedagogika akademiyasining ijtimoiy – iqtisod bo'lmini tamomlagan (1930-yil) Yahyo G'ulomov ilmiy faoliyatini 1933-yildan boshlagan.

FA Tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya bo'limi mudiri lavozimida (1940-1943-yillar) ishlagan olim 1943-yildan Tarix va arxeologiya instituti qadimgi va o'rta asrlar tarixi bo'limi mudiri etib tayinlanadi. 1956-1959-yillar davomida mazkur institut direktori vazifasini ham bajargan. Nomzodlik ishi (1943-yil) "Xiva va uning yodgorliklari" mavzusida bo'lgan bo'lsa, 1950-yil "Qadimgi davrdan hozirgi kungacha Xorazm qurg'oqchiligi tarixi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoyalagan.

Yahyo G'ulomovich G'ulomov erishgan ilmiy darajalari va yutuqlari:

1950-yilda tarix fanlari doktori;

1955-yilda professor;

1958-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi;

1966-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi;

2002-yil (vafotidan so'ng) "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

4 jilddan iborat "O'zbekiston tarixi", 2 jildli "Samarqand tarixi" va "Buxoro tarixi" asarlarining asosiy mualliflaridan hisoblangan Yahyo G'ulomov "Xiva shahrining yodgorliklari", "Quyi Zarafshon vodiysida ibtidoiy madaniyat va sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi" kabi bir qancha asarlar muallifi hisoblanadi. Shuningdek Yahyo G'ulomov boshqa mahalliy tarixchi olimlar bilan birgalikda, hammualliflikda bir nechta buyuk, boy tariximizga oid asarlar ham yozgan.

**O'z R FA Tarix instituti stajyor – tadqiqotchisi Zavqibek Mahmudov.**